

42-§. LABORATORIYA ISHI. HAVONING NISBIY NAMLIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Havoning namligini tajribada aniqlashni o'rganish.

Kerakli jihozlar: Avgust psixrometri (yoki ikkita bir xil termometrlar), suv solinadigan idish va doka.

Laboratoriya ishini bajarishdan oldin quyidagi jadvalni chizib oling.

№	t , C	t_h , C	Δt , C	φ , %	ρ , g/m ³
1					
2					
3					

Ishni bajarish tartibi

1. Psixrometr idishchasiga suv soling va 4-5 daqiqa kuting.
2. Quruq va ho'l termometrlar ko'rsatishlarini yozib oling.
3. Quruq va ho'l termometrlarning t va t_h ko'rsatishlarini yozib oling.
4. Quruq va ho'l termometrlarning ko'rsatishlarining farqini, ya'ni: $\Delta t = t - t_h$ hisoblang.
5. Psixrometrik jadvaldan quruq termometrning t ko'rsatishiga va Δt mos kelgan nisbiy namlikni belgilang (121- betda psixrometrik jadval berilgan).
6. 120-betda berilgan jadvaldan foydalanib, xonadagi absolyut namlikni aniqlang.
7. Tajriba natijalarini jadvalga yozing.

Izoh. Laboratoriya o'quv jihozlari ichida Avgust psixrometri bo'lmay, faqat termometrlar bo'lsa, ulardan psixrometr qurilmasini yig'ish mumkin. Agar faqat bitta termometr bo'lsa, u holda dastlab xona temperaturasini o'lchab olasiz. So'ng shu termometrning rezervuarini ho'l mato (doka) bilan o'rab, matoning bir qismini suvli idishga tushirib qo'yasiz. 5-6 daqiqa o'tgach termometrning ko'rsatishini yozib olasiz. Olingan natijalar asosida havoning nisbiy namligini hisoblaysiz.



1. Havoning nisbiy namligini aniqlash usulini ayting.
2. Tajriba natijalariga ko'ra, xonadagi absolyut namlik qanday hisoblanadi?